

SO'Z TURKUMLARI KLASSIFIKASIYALARINING ASOSIY PRINSIPLARI

Mamadaliyeva Zahro Shuhratjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya: *Ma'lumki, til kishilik jamiyatida fikr almashish quroli sifatida xizmat qiladi. Kishilarga fikr almashish imkoniyatini yaratib berish uchun har bir til ma'lum miqdordagi grammatik vositalarga ega bo'lish kerak. Bunday jarayon grammatika yordamida, yani gap orqali amalga oshadi. Gap esa ma'no va grammatik jihatdan bir-biri bilan bog'liq bo'lgan so'zlardan tashkil topadi.*

Kalit so'zlar: *so'z, klassifikatsiya, grammatika, sintaksis nutq.*

Tilning grammatik qurilishi o'z kategoriyalari va birliklariga ega. Bular so'z formalari, so'z birikmalari va gaplardir. Grammatika ikki qismdan iborat: morfologiya va sintaksis. Morfologiyada so'z turkumlari, ularning kategorial va nokategorial formalari o'rganiladi. Sintaksis nutqning grammatik tuzilishi haqidagi ta'lim bo'lib, so'z birikmasi, gap va undan yirik bo'lgan birliklarni o'z ichiga oladi.

Morfologiya grammatikaning bir qismi bo'lib, so'z turkumlari nazariyasi haqidagi ta'limdir. So'zlarni so'z turkumlariga ajratish nazariyasining prinsiplari quyidagilar:

- 1) So'z turkumlarining kategorial belgilari;
- 2) So'zlarni turkumlarga ajratish prinsiplari;
- 3) Turli tillarda so'z turkumlari;

So'z turkumlarining morfoligik belgisi deganda, so'zlarga xos bo'lgan grammatik kategoriyalar, mazkur so'zlarga xos forma yasovchi, so'z uzgartuvchi affiksial morfemalar tushuniladi. So'z turkumlarinig kategorial belgilari barcha so'z turkumlariga bir xil namoyon bo'lmaydi.

So'z turkumlari nazariyasining ikkinchi prinsipi bo'lgan so'zlarni so'z turkumlariga ajratish prinsipiga asosan so'z turkumlari dastlab ikki katta gruppaga bo'linadi: mustaqil so'zlar va yordamchi so'zlar. Mustaqil so'zlar ma'lum tushuncha ifoda qilib, biror predmet, belgi, xarakter nomini ataydi, gapda biror gap bo'lagi bo'lib keladi. Yordamchi so'zlar tushuncha ifoda etmaydi, ular faqat grammatik ma'no ifoda qiladi va gapda so'zlarning o'zaro munosabatini o'rnatishga xizmat qiladi. Bularning ba'zilari so'zlarning analitik formasini hosil qiladi. Demak, mustaqil va yordamchi so'zlarning asosiy farqi ularning funksional grammatik belgilaridir. Yordamchi so'zlar funksional grammatik jihatdan morfemalarga yaqin turadi.

Akademik V. Vinogradov mustaqil so'zlarning leksik-grammatik turlarigina so'z turkumlari deb, yordamchi so'zlarni nutq yuklamalari deb hisoblaydi.

Mustaqil so'zlar ichida so'z-nomlar, olmosh va undovlar farq qilinadi. So'z-nomlarning ma'nosidan predmet, voqea-hodisa, belgi, son, ish-xarakter nomlari ekanligi anglashilib turadi. Mustaqil so'zlar ichida olmoshlar boshqalardan bir qancha xususiyati

bilan farq qiladi. Ular narsa va predmetlarni bevosita atamay, bilvosita anglatadi. Olmoshlarni odatda, faqat vazifalariga qarab olmosh turkumiga kiritishadi. Boshqa jihatlardan, ya'ni ma'no, gapdagi funksiyasi, grammatik formasi va boshqa so'zlar bilan aloqaga kirisha olishi nuqtai nazaridan olmoshlar bir-biridan jiddiy farq qilishlari mumkin.

So'z-nomlarga sifat, son, ravishlar ham kiritiladi. Bular semantik, morfologik, sintaktik, so'z yasash belgilariga ko'ra o'zaro farq qiladi.

Yordamchi so'zlarga ko'makchi, predlog, yuklama, bog'lovchi va artikllar kiradi. Bulardan tashqari, modal va taqlid so'zlar ham ajratiladi. Odatda, mustaqil va yordamchi so'zlar nutqda ot va fe'llar uchun xizmat qiladi.

So'z turkumlari nazariyasining uchinchi prinsipi turli tillarda so'z turkumlari masalasidir. Bu tarixiy-tipologik xarakterga ega. Turli tillarda so'z turkumlarining mavjudligi uning universal ekanligini ko'rsatadi. So'z turkumlarining miqdori, ularning belgilari tarixiy o'zgaruvchan bo'lib, turli sistemalardagi tillardagina emas, balki qarindosh tillarda ham turlichadir.

Hozirgi zamon ingliz tilidagi so'z turkumlarining soni ham turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi: ba'zilar 10ta deb ko'rsatsa (ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, predlog, bog'lovchi, artikl va yuklamalar), ba'zilar 14ta deydilar: yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda modal so'zlar, holat kategoriyasi, undovlar, javob so'zlar kiritiladi.

So'z turkumlarining soni turli tillarda turlicha bo'lishiga qaramay, bir tildagi so'z turkumlarining miqdori bo'yicha ham olimlar orasida turlicha qarashlar mavjud. Bu haqda bitiruv malakaviy ishning quyidagi bo'limida so'z yuritiladi.

So'z turkumlari muammosi ham umumiy lingvistika nazariyasi, ham alohida tillar analizida katta qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Hozirgi zamon ingliz tilida qaysi so'z turkumi muhim o'rinda turishi haqida bir necha umumiy masalalarni ko'rib chiqamiz.

Yuqorida ko'rib chiqqilganidek, hozirgi zamon ingliz tilidagi so'z turkumlarining soni ham turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi: ba'zilar 10ta deb ko'rsatsa (ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, predlog, bog'lovchi, artikl va yuklamalar), ba'zilar 14ta deydilar: yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda modal so'zlar, holat kategoriyasi, undovlar, javob so'zlar kiritiladi. Biroq bu faqat birgina ingliz tiliga xos bo'lgan ta'rif.

So'z turkumlarini tasniflash umumiy tilshunoslik fanining dolzarb muammolaridan bo'lib, eng ko'p munozaralarga sabab bo'lgan mavzudir. So'z turkumlari ham morfologik, ham sintaktik xususiyatlarga ega. So'z turkumlarini tasnif qilish uch turdagi prinsipga asoslanadi:

- 1) ma'no
- 2) shakl
- 3) funksiya

Soʻz turkumlari uch prinsipga, yaʼni oʻz maʼnosiga, shakliga (kategoriyalariga), funksiyasiga koʻra mustaqil soʻz turkumlari va yordamchi soʻz turkumlariga boʻlinadi.

Mustaqil soʻzlarning aniq leksik maʼnosi boʻlib, ular gapda mustaqil funksiyani bajaradilar. Demak, ular gapda gapning bosh boʻlaklari boʻlib kelishi mumkin. Mustaqil soʻzlarga feʼl, ot, sifat, son, olmosh va ravish soʻz turkumlariga kiruvchi soʻzlar kiradi.

Yordamchi soʻzlar mustaqil soʻzlardan semantik jihatdan farq qiladi. Yordamchi soʻzlar gapda biror bir funksiyani bajarmaydi. Lekin ular gapda soʻzning maʼnosini aniqlaydi.

Koʻpchilik olimlar soʻz turkumlarini morfologiyaning bir boʻlagi deb qarashadi, lekin shunga qaramay soʻz turkumlarini sintaksisga bogʻlab oʻrganmaslik xato boʻladi. Bu muammoga turli olimlar turlicha fikr bildirganlar.

Akademik A.A.Shaxmatovning fikricha, soʻz turkumlari sintaksisda oʻrganilishi kerak. Tilshunos olim B.Ilyish soʻz turkumlari nazariyasini baʼzi sintaktik jihatlari ham oʻz ichiga olgan holda morfologiyaning asosiy qismi deb qaraydi. Tilshunos olim E.M.Gordon soʻz turkumlariga quyidagicha toʻxtalib oʻtadi: “Har bir tildagi mavjud soʻzlar maʼlum soʻz turkumlariga mansub boʻlib, har bir soʻz turkumi oʻz xususiyatiga ega .

Bundan tashqari birinchi bobda biz bogʻlovchilar, ularning vazifasiga koʻra turlarini oʻrganib chiqdik va uning strukturasi haqida ham umumiy maʼlumot berib oʻtdik. Bizga maʼlumki, bogʻlovchilar gapda mustaqil funksiyani bajarmaydi va kategoriyalarga ham ega emas..Shu bois ingliz tilida bogʻlovchilar yordamchi soʻz turkumlari sirasiga kiradi. Bogʻlovchilarning gapda ishlatilishini badiiy asarlardan olingan misollar orqali koʻrib chiqdik. Bogʻlovchilarning ishlatilishi baʼzan koʻproq modallikni ifodalaydi, masalan moreover, however, nevertheless, besides kabilardek. Lekin bu modal soʻzlarning bogʻlovchilardan farqi shundaki, ular gapning bosh qismida, oʻrtasida yoki oxirida ishlatilishi mumkin. Bogʻlovchilar vazifasiga koʻra teng bogʻlovchi va ergashtiruvchi bogʻlovchilarga boʻlinadi. Teng bogʻlovchilar gapdagi grammatik jihatdan teng vazifaga ega boʻlgan gap boʻlaklarini bogʻlashga xizmat qiladi.

Soʻz turkumi termini (rus, nemis, fransuz va boshqa tillarda ham shu nom bilan ataladi) juda mustahkam, hammaga maʼlum termin boʻlsada, bizning fikrimizcha bu juda toʻgʻri emas. Masalan, feʼl boshqa soʻzlardan faqat zamon kategoriyasi bor boʻlgani uchun farq qiladi. “live” soʻzining oʻtgan zamon shakli faqat “lived” boʻladi degan javob boʻlishi muqarrar, lekin shu oʻrinda “city” yoki “back” soʻzining oʻtgan zamon shakli nima boʻladi deyish noʻrin, notoʻgʻri savol boʻladi. Chunki zamon kategoriyasi feʼlni boshqa soʻzlardan ajratib turadigan asosiy xususiyatlaridan biridir.

Ingliz tilidagi barcha soʻzlar anglatgan leksik-grammatik maʼnosi, morfologik formasi va ozaro sintaktik aloqaga kirishishi hamda gapdagi vazifasiga koʻra malum guruhlariga boʻlinib, ular grammatikada soʻz turkumlari deb yuritiladi. Ingliz tilidagi

soʻz turkumlarini turli olimlar turlicha talqin qiladilar. Masalan, Dioniskiy oʻzidan avvalgi olimlarning fikriga tayanib, soʻzlarni quyidagi sakkizta turkumga ajratadi :

- 1.Ot 2.Olmosh.3.Feʼl 4.Predlog. 5.Sifatdosh.6.Ravish.7.Artikl. 8.Bogʻlovchi.

Tilshunos olimlar Dioniskiy va Diskolning kamchiliklarini ularning izdoshlari, yaʼni shogirdlari toʻldirishdi. Grammatik kategoriyalarni takomillashtirish yoʻlida stiklar tomonidan quyidagi ishlar qilindi:

- 1.Soʻz turkumlari tushunchasiga aniqlik kiritildi.
- 2.Tilda ifodolovchi va ifodalanuvchi elementlar borligi koʻrsatildi.
3. Ot kategoriyasiga sredniy rod tushunchasi kiritildi.

Soʻz turkumlari haqidagi muammo umumiy tilshunoslik nazariyasida va har bir til tahlilida eng koʻp munozarali muammolardan biridir.

Soʻz turkumlarini tasnif qilish uch turdagi prinsipga asoslanadi:

- 1) soʻzlarning leksik maʼnosi;
- 2) soʻzlarning morfologik belgilari, yaʼni uning grammatik shakli;
- 3) soʻzlarning gapdagi sintaktik funksiyasi;

1) Soʻzlarning leksik maʼnosi deganda biz maʼlum bir guruhga kiruvchi hamma soʻzlarning umumiy maʼnosini va mohiyatini tushunamiz. Masalan, “Ot” soʻz turkumiga toʻxtaladigan boʻlsak, “ot” soʻz turkumining soʻz sifatidagi struktural maʼnosini tashkil etadi. Xuddi shunday feʼl soʻz turkumining soʻz sifatidagi maʼnosi ish harakatni bildiradi.

2) Soʻzlarning morfologik belgilari, yaʼni uning grammatik shakli deganda biror bir soʻz turkumiga kiruvchi soʻzlarning morfologik xarakteristikasi nazarda tutiladi. Shunday qilib “ot ” soʻz turkumi son kategoriyasi (birlik, koʻplik) bilan xarakterlansa, feʼl soʻz turkumi zamon, mayl kabi kategoriyalar bilan xarakterlanadi.

Predlog bogʻlovchi kabi bir qator soʻzlarning shakli oʻzgarmasligi bilan xarakterlanadi.

3) Soʻzlarning gapdagi sintaktik funksiyasi deganda biz soʻzning sintaktik xususiyatini tushunamiz, bu esa ikkiga boʻlinadi:

- 1) uning boshqa soʻzlar bilan birikishi
- 2) uning gapdagi vazifasi.

Birinchisi frazalar (soʻz birikmasi), ikkinchisi gap strukturasi bogʻliq. Masalan, 1) write letters yoki write quickly. 2) feʼlning gap strukturasi kesim vazifasi.

Masalan, misol tariqasida feʼl soʻz turkumiga oid soʻzni olib qaraydigan boʻlsak, “feʼl” “ot” soʻz turkumi bilan birikadi: “write letters”, “discuss questions” va shu bilan birga feʼl soʻz turkumi ravish bilan ham birikadi: “write quickly”, “discuss seriously”. Feʼl soʻz turkumining gapdagi sintaktik funksiyasi kesimdir.

Demak, biz aniq ayta olamizki, yuqorida soʻz prinsiplari toʻgʻri tartibda qoʻyilgan: maʼno (1), forma (2) va vazifa oxirgi.

Soʻz turkumlari ham morfologik, ham sintaktik xususiyatlarga ega.

1. Ot (noun) yoki substantivning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

(1) Ma’no: predmet (thingness). Bu kabi otlar nafaqat chair yoki iron, balki beauty, peace, necessity, journey kabilarni narsa yoki ob’jekt sifatida namoyon etadi.

(2) Forma. Otlar son kategoriyasiga ega, garchi ayrim otlar faqat birlik yoki ko’plik formalariga ega. Bundan tashqari ular kelishik kategoriyasiga ham egadir.

(3) Funksiya (vazifa): a) so’zlar birikib so’z birikmalarini tashkil etadi. Ot+sifat - large room, times immemorial;

Ot+ot - iron bar,

Ot+ot (qaratqich kelishigida) - father’s room,

Ot+fe’l - children play, play games,

Ot+ravish - the man there, the then president,

Ot+predlog - house of rest,

Ot+artikl -the room, a room.

b) gapdagi vazifasi. Ot gapning egasi, kesimi, to’ldiruvchi, aniqlovchi yoki hol bo’lib kelishi mumkin.

2.Sifat. Sifatning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

(1) Ma’no. Belgi.

(2) Forma.. Hozirgi zamon ingliz tilida ular o’zgarmaydilar. Ayrim sifatlar darajalarga ega ___long, longer, longest.

(3) Funksiya.

(a) sifat+ot - large room, times immemorial.

Sifat+ravish - very large;

Sifat + predlog + noun - free from danger;

Sifat + fe’l- married young.

(b) gapda sifat aniqlovchi - large room yoki kesim --- is large ni ifodalashi mumkin.

3. Olmosh. (1) olmoshlarni alohida so’z turkumiga ajratish biroz qiyinchilik tug’diradi. Aslida ayrim olmoshlariga ega (he, she), boshqalari esa sifat ga o’xshash xususiyatlariga ega (which). Bu esa ayrim olmoshlarni mustaqil so’z turkumi emas, balki ot va sifat o’rtasidagiso’z deb ifodalanishi kerak, deb fikrlashga undadi. Olmoshlarning ma’nosi o’laroq ular narsa yoki belgining nomini bildirmaydi, faqat ularni ko’rsatib qoladi. Masalan, it olmoshipredmetning nomini bildirmaydi. It’s--- egalik xususiyatini anglatadi. Whatolmoshiesha ham predmet, ham belgini anglatishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. Бабалова Л.Л. “Об употреблении союзов и, а, но в сложном предложении”. М.1980.

2.Бархударов Л.С, Штеллинг Д.А. “Грамматика английского языка” М., 1973, 265-ст.”

3. Во'ronov J.В “Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi”
4. Жигadlo В.Х., Иванова И.Л. “Современный английский язык” М., 1956.
5. Gordon E.M., Krylova I.P. “A Grammar of present - day English” М., 1974
6. Пыsh В.А “The structure of Modern English ” М., 1959
7. Каушанская Б.Л., Ковнер Л.П. “Грамматика английского языка” Л., 1973
8. Качалова К.Н, Е.Е.Израилевич “ Практическая грамматика английского языка” М., 1996.